

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

O‘ZBEK TILIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING LINGVISTIK TIZIMDAGI O‘RNI: FUNKSIONAL VA PRAGMATIK YONDASHUV

Azamat Pardayev Baxronovich

Samarqand davlat universiteti

*O‘zbek tilshunosligi kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning til tizimidagi o‘rnini, mustaqil so‘zlar bilan munosabatini, tarixiy rivojlanishini va funksional hamda pragmatik xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda formal, substantzial va diskursiv tahlil usullari qo‘llanilib, yordamchi so‘zlarning gap tuzilishi va semantik–grammatik hamda pragmatik rollari aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bu so‘zlar til tizimining uyg‘unligini saqlash va nutqda muallifning niyatini, intonatsiya va stilistik xususiyatlarini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot yordamchi so‘zlarni yagona, birlashtirilgan model asosida tasniflash va tahlil qilish uchun yangi metodologiyani taklif etadi, bu esa kelgusidagi tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo‘ladi. Maqolada yordamchi so‘zlarning semantik-uslubiy xususiyatlari bilan birga ulardagi ma‘naviy mushtaraklik, funktsional chegaralanish, diskursiv semantik-stilistik umumiylik va farqlanishlari, bir-birini almashtirish va bir-biriga zidlanish hodisalari substantziallikni pragmatizm bilan bog‘lagan usulda tahlil qilingan. Yordamchi so‘zlarning ichki guruhlanishi, ya‘ni ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarga ajratilishi, ularning umumiy integral (birlashtiruvchi) va har bir guruhning xususiy farqlovchi (differentsial) semantik-funktsional belgilari o‘z tavsiflangan. Yordamchi so‘zlarning boshqa turkum so‘zlardan farqli tomonlari aniqlangan. Nutqda mustaqil va yordamchi so‘z sifatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan juda katta miqdordagi gibril so‘zlar (ot-ko‘makchi, ravish-ko‘makchi, sifat-ko‘makchi, ko‘makchi fe‘llar, nisbiy so‘zlar v.h) ajratilib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilishi sabablari tavsiflangan. Mustaqil so‘zlarning yordamchi so‘zlar turkumiga o‘tish qonuniyatlari aniqlashtirilib, til taraqqiyoti silsilasida yordamchi so‘zlarning nafaqat semantik va grammatik, balki funktsional-stilistik hamda substantzial-pragmatik imkoniyatlarining ham kengayib borayotganligi, grammatik vosita bo‘lish doirasidan tashqariga chiqib, oddiy axborot yoki ma‘lumot berishdan ta‘sirchanlikka, mavhumlikdan aniqlikka qarab borishdagi muhim uslubiy vosita hisoblanayotganligi, yordamchi so‘zlarga pragramlingvistikaning predmeti va ob‘ekti sifatida qarab, ularning og‘zaki va yozma nutqdagi emotsional-ekspressiv ma‘no ottenkalari aniqlangan hamda pragmatik mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yordamchi so‘zlar, funksional tahlil, pragmatik yondashuv, semantik xususiyatlar, lingvistik tizim, diskursiv tahlil, o‘zbek tili, grammatik analiz.

МЕСТО ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ: ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация: Данное исследование анализирует место служебных слов узбекского языка в языковой системе, их взаимосвязь с самостоятельными словами, историческое развитие, а также функциональные и прагматические особенности. В исследовании применены методы формального, субстанционального и дискурсивного анализа, определены роль служебных слов в структуре предложения, их семантико-грамматические и прагматические функции. Результаты показывают, что эти слова играют важную роль в поддержании гармонии языковой системы и отражении авторского замысла, интонационных и стилистических особенностей в речи. Исследование предлагает новую методологию для классификации и анализа служебных слов на основе единой, интегрированной модели, которая послужит прочной основой для будущих исследований. В статье рассматриваются семантико-стилистические особенности служебных слов, а также их смысловая общность, функциональные ограничения, дискурсивные семантико-стилистические сходства и различия, взаимозаменяемость и противопоставление.

Ключевые слова: Вспомогательные слова, функциональный анализ, прагматический подход, семантические особенности, лингвистическая система, дискурсивный анализ, узбекский язык, грамматический анализ.

THE ROLE OF AUXILIARY WORDS IN THE LINGUISTIC SYSTEM OF THE UZBEK LANGUAGE: A FUNCTIONAL AND PRAGMATIC APPROACH

Abstract: This study analyzes the role of auxiliary words in the Uzbek language system, their relationship with independent words, historical development, and functional and pragmatic features. The research employs formal, substantial, and discursive analysis methods to determine the sentence structure and semantic-grammatical, as well as pragmatic roles of auxiliary words. Results indicate that these words play a crucial role in maintaining the harmony of the language system and reflecting the author's intention, intonation, and stylistic features in speech. The study proposes a new methodology for classifying and analyzing auxiliary words based on a single, unified model, which will serve as a solid foundation for future research. The article presents the semantic and stylistic features of auxiliary words, along with their semantic commonality, functional limitations, discursive semantic and stylistic commonalities and differences, interchangeability, and contrasts.

Keywords: Function words, functional analysis, pragmatic approach, semantic features, linguistic system, discursive analysis, Uzbek language, grammatical analysis.

Kirish

Tilshunoslik insoniyat madaniyati va ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida tilning strukturaviy va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganishni talab etadi. Tilning har bir qismi – mustaqil va yordamchi so‘zlar – o‘ziga xos vazifalarni bajaradi. Yordamchi so‘zlar, gaplarni birlashtirish va semantik aniqlikni ta’minlash bilan birga, nutqda muallifning niyati, intonatsiya va stilistik ifodalarni aks ettirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ularning til tizimidagi o‘rni va funksiyalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlar mavzusi avvalgi tadqiqotlarda asosan formal tahlil usullari yordamida yoritilgan bo‘lsa-da, ularning funktsional, substantzial va diskursiv jihatlarini yetarli darajada yoritilmagan. Avvalgi dissertatsiyalar va ilmiy ishlar yordamchi so‘zlarning tarixiy rivojlanishi, mustaqil so‘zlar bilan munosabatlari hamda semantik–sintaktik xususiyatlariga urg‘u bergan. Biroq, ularning nutqdagi roli, ya’ni muallifning kommunikativ niyati, intonatsiya va stilistik xususiyatlar orqali aks etishi ham chuqur o‘rganilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, yordamchi so‘zlarni yagona, birlashtirilgan model asosida tasniflash va tahlil qilish zamonaviy o‘zbek tilshunosligida yetishmayotgan bo‘lim sifatida e’tirof etiladi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy sohasi – o‘zbek tilshunosligi bo‘lib, ayniqsa, tilning funktsional va pragmatik jihatlariga qaratilgan. Yordamchi so‘zlar til tizimining uyg‘unligini saqlash, gap tuzilishini bog‘lash va muloqot jarayonida muallifning niyatini aks ettirishda ajralmas rol o‘ynaydi. Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlar asosan ularning formal xususiyatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, ularning kontekstual, pragmatik va stilistik jihatlarini bo‘yicha yetarli bilim hosil qilinmaganligi kuzatiladi.

Maqolaning asosi shundaki, o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlar nazariy jihatdan yanada chuqurroq o‘rganilishi, ularning mustaqil so‘zlar bilan o‘zaro aloqalari va nutqda ifodalanish mexanizmlari aniqroq ko‘rib chiqilishi zarur. Shu maqsadda, biz formal, substantzial va diskursiv tahlil usullarini integratsiyalashgan model asosida qo‘llab, yordamchi so‘zlarning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini yagona tasnifda ifodalashga intilamiz.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning til tizimidagi o‘rnini, ularning mustaqil so‘zlar bilan munosabatlarini, tarixiy rivojlanishini va semantik–pragmatik funktsiyalarini yagona, integratsiyalashgan model asosida tasniflash hamda tahlil qilishdir. Tadqiqot natijalari yordamchi so‘zlarning gap tuzilishi, nutqning modallik jihatlarini va muallifning kommunikativ niyatlarini yanada aniqroq ifodalash mexanizmlari ochiladi. Shu tarzda, ish nafaqat nazariy asoslarni boyitadi, balki amaliy jihatdan tilshunoslik, adabiyotshunoslik va kommunikatsiya sohalarida yangi yondashuvlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Natijalar, shuningdek, o‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning tasnifi va ularning semantik–pragmatik munosabatlarini ochib berish orqali kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi ilmiy yo‘nalishlarni belgilaydi. Ushbu tadqiqot yangi metodologik yondashuv va integratsiyalashgan model asosida olib borilishi bilan, til tizimidagi yordamchi so‘zlarning o‘rnini keng qamrovli

tahlil etishga va ularning turli jihatlarini yagona ilmiy kontsepsiya doirasida ifodalashga qaratilgan.

Materiallar va Metod

Ushbu tadqiqot o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan 616 ta sof va funksional yordamchi so‘zlarning ontologik xususiyatlarini (ularning tarixiy–etimologik mansubligi, asl yoki vazifadoshligi, qaysi so‘z turkumidan rivojlanganligi, grammatikatsiyalashuv darajasi, turkum ichidagi semantik–funktional turlari, shakliy ko‘rinishlari, vazifaliligi, qo‘shimcha turkumlarga aloqadorligi, qo‘llanilish doirasi, uslubiy xususiyatlari va ingyerent presuppozitiv ishora mavjudligi yoki yo‘qligi) aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot uchun quyidagi materiallar ishlatilgan:

- Hozirgi o‘zbek tilidagi 616 ta sof va funksional yordamchi so‘z namunalarini o‘z ichiga olgan yozma va og‘zaki matnlar.
- Ilgari olib borilgan tadqiqotlar, dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar asosida to‘plangan ma’lumotlar, ularning yordamchi so‘zlar tasnifiga oid natijalari va tavsiflari.
- Yuqorida qayd etilgan jadval, ya’ni yordamchi so‘zlarning tarixiy–etimologik mansubligi, semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘p o‘lchovli model.

Ushbu tadqiqot yordamchi so‘zlarning semantik, sintaktik va pragmatik jihatlarini chuqur tahlil qilish hamda ularning til tizimidagi o‘rnini aniq belgilash maqsadida olib borildi. Tadqiqotda asosiy material sifatida hozirgi o‘zbek tilidagi yozma va og‘zaki matnlar, ilgari chop etilgan tadqiqotlar, dissertatsiya materiallari va darsliklardan olingan ma’lumotlar, shuningdek, “O‘zbek tili yordamchi so‘z turkumlarining tarkibi va substantzial–pragmatik tavsifi” jadvali asosiy dalil sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda yordamchi so‘zlarning til tizimidagi o‘rnini aniqlash va ularni yagona, integratsiyalashgan model asosida tasniflash uchun quyidagi usullar integratsiyalashgan holda qo‘llanildi:

Qiyosiy–Tarixiy Metod

Ushbu usul yordamida yordamchi so‘zlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va mustaqil so‘zlardan ajralib chiqishi o‘rganildi. Tadqiqot etimologik manbalar asosida ularning tarixiy konteksti va grammatikatsiyalashuv jarayoni aniqlanib, so‘zlarning leksik asoslari bilan ularning funksional o‘zgarishlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berildi.

Sinxronik Formal Tavsif Metodi

Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi yordamchi so‘z turkumlarining tarkibi, ularning tuzilishi va gap ichidagi joylashuvi sinxronik tahlil usuli orqali o‘rganildi. Bu usul yordamida har bir yordamchi so‘zning formal xususiyatlari, ya’ni, ularning morfologik shakli, sintaktik roli va gap tarkibidagi o‘rni aniqlanib, ularning tizimdagi umumiy integratsiyasiga urg‘u berildi.

Qiyosiy–Chog‘ishtirma Metod Turli tilshunoslik yondashuvlarini solishtirish orqali yordamchi so‘zlar orasidagi o‘xshashliklar va farqlar aniqlandi. Ushbu metod yordamida o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan solishtirilishi orqali ularning o‘ziga

xosligi va umumiylik jihatlari belgilandi. Shu tarzda, turkiy tillar va Hind–Yevropa tillaridagi o‘xshashliklar va farqlar tahlil qilinib, o‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning semantik va sintaktik qirralari yanada aniqlashtirildi.

Distributiv Tahlil Metodi Ushbu usul yordamida yordamchi so‘zlarning nutqdagi taqsimlanishi, ya’ni, qo‘shimcha va kontrast jihatlari aniqlanib, ularning muloqot kontekstidagi vazifalari o‘rganildi. Matndagi yordamchi so‘zlarning turli joylashuvlari, ularning qo‘llanilish doirasi va ularning gap tarkibidagi o‘zaro munosabatlari aniqlik kiritildi.

Substantsial Tahlil Metodi

Yordamchi so‘zlar orasidagi paradigmatic munosabatlar, ularning umumiy (lisoniyniy) va maxsus (nutqiy) ma’nolari hamda semantik–funksional turlari aniqlanib, graduatsiya va sintez jarayoni o‘rganildi. Ushbu yondashuv yordamida, so‘zlarning semantik va funksional jihatlari darajalanib, ularning til tizimidagi o‘rnini yanada keng qamrovli va batafsil tasniflash imkoniyati hosil qilindi.

Diskursiv Tahlil Metodi

Nutqda yordamchi so‘zlarning roli, ularning kommunikativ vazifalari, jumladan, intonatsion va stilistik xususiyatlari diskursiv tahlil usuli yordamida o‘rganildi. Ushbu metod yordamida so‘zlarning muloqotdagi real vazifalari, ya’ni, gaplarning mantiqiy birligi va muallifning niyatini ifodalashdagi o‘rni aniqlab berildi.

Statistik Metod

Tanlangan matnlar asosida yordamchi so‘zlarning chastotasi va turli kontekstlardagi paydo bo‘lishi statistik usullar orqali o‘lchanib, tahliliy natijalarga qo‘shimcha dalillar sifatida kiritildi. Statistik tahlil yordamida, yordamchi so‘zlarning qo‘llanilish miqdori va ularning kontekstual taqsimoti haqida aniq ko‘rsatkichlar olinib, bu natijalar diskursiv va substantsial tahlil natijalari bilan solishtirildi.

Ushbu usullarni integratsiyalashgan holda qo‘llash orqali, tadqiqot yordamchi so‘zlarning semantik, sintaktik va pragmatik jihatlari yagona model asosida batafsil tahlil qilishga, ularning til tizimidagi o‘rnini aniqlashtirishga va kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qildi. Natijalar, shu jumladan, jadval va grafik ko‘rinishidagi vizual taqdimotlar yordamida, yordamchi so‘zlarning murakkab semantik–sintaktik, diskursiv va pragmatik munosabatlari aniq va tushunarli tarzda ifodalandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot doirasida avvalo o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning salkam ikki ming yillik tarixiy taraqqiyoti, ularning lisoniy tizimdagi shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari sinxronik hamda diaxronik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Mazkur tadqiqot natijalarini “ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama” asosiy guruhlari misolida umumlashtirish mumkin. Biroq, chuqur tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mavjud tasniflar muntazam ravishda bir-biriga zid kelishi, ayrim hollarda esa turli adabiyotlar va darsliklarda turlicha ko‘rsatilishi sababli, yordamchi so‘zlarning aniq chegarasini belgilash oson emas.

1. Yordamchi so‘zlar tasnifidagi mavhumlik

Avvalo, antik davrdan boshlab so‘zlarni tasniflash jarayonida yordamchi so‘zlarning alohida guruh sifatida qayd etilganiga qaramay, bu to‘plamning chegaralari aniq emasligi aniqlandi. Masalan, ravish, modal so‘z, undov, mimema kabi boshqa o‘zgarmas so‘z turkumlari bilan aralashib ketgan yordamchi birliklar ko‘p uchraydi. Bu esa ilmiy tavsiflarda chalkashliklar keltirib chiqaradi. Tadqiqotimizda ushbu chalkashliklarga sabab bo‘layotgan tarixiy, tipologik va metodologik omillar har tomonlama ko‘rib chiqildi.

2. Tarixiy taraqqiyot va o‘zaro bog‘liqlik

So‘z turkumlari tizimi uzluksiz rivojlanish jarayonida shakllanadi. Yordamchi so‘zlarning mustaqil so‘zlardan farqlanishi, leksik-ma‘noviy jihatdan o‘zgacha vazifaga ega bo‘lishi ham uzoq tarixiy–genealogik taraqqiyot mahsulidir. VIII–XI asrlardayoq arab tilshunosligining ta’siri ostida shakllangan turkiyshunoslikda yordamchi so‘zlar aglütinativ qo‘shimchalar bilan birlashgan holda tasnif qilingani, “Devonu lug‘otit turk”da esa affiksalar qurilishga ega yordamchi vositalar keng yoritilgani qayd etildi. Bu dalillar, o‘z navbatida, turkiy tillarda yordamchi so‘zlarning juda erta bosqichlardan boshlab mustaqil leksik birliklarga raqobatchi bo‘lganini ko‘rsatadi.

3. Mustaqil so‘zlar bilan o‘zaro aloqadorlik

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yordamchi so‘zlar mustaqil leksik birliklardan alohida mavjud bo‘lib, ayrim hollarda ular bilan “gibrid” shakllarni hosil qiladi. Masalan, ot–ko‘makchi, ravish–ko‘makchi, sifat–ko‘makchi, ko‘makchi fe‘l kabi shakllar nafaqat formal, balki semantik va funktsional jihatdan ham oraliq maqomga ega. XX asrning o‘rtalariga kelib, o‘zbek tilshunosligi so‘zlarni turkumlashda “o‘zbekona” tamoyillarni ishlab chiqa boshlagach, bu gibrid shakllar alohida e’tiborga sazovor bo‘ldi. Shunday bo‘lsa-da, turli davr yozma yodgorliklari va zamonaviy matn materiallaridan ma’lum bo‘ladiki, ayrim birliklar rasmiy ravishda ko‘makchi yoki bog‘lovchi sifatida e’tirof etilganiga qaramay, nutqda boshqa vazifalarga ham ega bo‘lishi mumkin.

4. Aglyutinativ va flektyiv tillardagi farqlar

Yordamchi so‘zlar funksiyasi Hind–Yevropa tillarida, xususan flektyiv tuzilmaga ega bo‘lgan rus tilida, ko‘proq mustaqil rol o‘ynab, ayrim hollarda fe‘l va modal so‘z bilan uyg‘unlashib ketadi. Ammo o‘zbek tilidek aglütinativ xususiyatga ega bo‘lgan turkiy tillarda, yordamchi so‘zlar ko‘proq qo‘shimchalar bilan hamkorlikda ishlatiladi. Shunga qaramay, bizning tadqiqot jarayonida ayrim nazariy xulosalar flektyiv tillardan turkiy tillarga bevosita ko‘chirilganini aniqladik. Bu esa, nazariy jihatdan xato tushinishlar va nazariy bahslar keltirib chiqargan.

5. Kengayib borayotgan funktsional qirralar

Ilgari e’lon qilingan ilmiy ishlar, asosan, yordamchi so‘zlarning formal va grammatik tomonlarini tadqiq qilish bilan cheklangan. Bizning yangi natijalarimizdan biri shundaki, yordamchi so‘zlar o‘zbek tilida nafaqat semantik va grammatik, balki funktsional-stilistik va substantzial-pragmatik imkoniyatlarini ham kengaytirib bormoqda. Masalan, bog‘lovchi yoki yuklama sifatida qaralgan ayrim yordamchi birliklar muloqot jarayonida subyektiv munosabat,

intonatsion ta’sir yoki muallifning niyatini namoyish etish vositalariga aylanib borayotgani kuzatildi.

6. Градуонимия (darajalanish) tamoyili
Yordamchi so‘zlarni градуонимик shaklida tasniflash tushunchasi ma’lum darajada yangi yondashuv bo‘lib, u yordamchi birliklarni faqat “ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama” doirasida cheklab qo‘ymasdan, ularning mazmun, vazifa va shakldagi turli bosqichlarini ham ifodalashni taklif etadi. Tadqiqot jarayonida har bir bo‘limda turli xil градуониya holatlarini qayd etish uchun quyidagi jadval shaklidan foydalanildi:

Ko‘makchi, Bog‘lovchi, Yuklama o‘rtasidagi zidlanish asoslari

№	Zidlanish asoslari	Ko‘makchi	Bog‘lovchi	Yuklama
	Analitik forma hosil			
1	qilish va gap bo‘laklarini shakllantirish	+	-	-
	Sintaktik			
2	munosabatlarni ta’minlovchi vosita bo‘lish	+	+	-
3	Tenglashish sintaktik aloqasini ta’minlash	-	+	-
4	Tobelashish sintaktik aloqasini ta’minlash	+	+	-
5	Kelishik qo‘shimchalari bilan funksiyadoshlik	+	-	-
6	Modal ma’no ifodalash	-	-	+
	Ma’lum kelishik			
7	shaklidagi so‘zlarni boshqarish – boshqarmaslik	+	-	-
8	Turlanishga moyillik	+	-	-
9	Grammatika ma’no ifodalash	+	+	-
	Birikma yoki gap tarkibida ma’no va vazifasini			
10	yuzaga chiqarishda shakliy qiymati bilan muntazam ishtirok etish – etmaslik	+	-	+
	Mustaqil so‘zlarning			
11	lug‘aviy ma’nosini shakllantirish	+	-	-

№	Zidlanish asoslari	Ko‘makchi	Bog‘lovchi	Yuklama
12	Faol presuppozitsiya ifodalash	+	-	+

7. Grammatikatsiya

bosqichlari

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim yangiliklardan biri shundaki, yordamchi so‘zlarning salkam barchasi grammatikatsiya jarayonidan o‘tgan yoki o‘tish bosqichida turadi. Ya’ni, ular mustaqil so‘z sifatida boshlangan bo‘lishi, keyinchalik ichki ma’nosi susayib borgan sari funksional va sof yordamchi rolini egallashi mumkin. Jumladan:

◦ Birinchi bosqich: yordamchisimonlik (so‘zning leksik ma’nosi hali ham saqlanib qolgan, biroq yordamchi sifatida ham vazifa bajaradi).

◦ Ikkinchi bosqich: yordamchilashganlik (leksik ma’no susayib, grammatik vazifa kuchaygan).

◦ Uchinchi bosqich: yordamchilashganlik (mustaqil semantik ma’no deyarli yo‘qolgan, asosan xizmat so‘zi sifatida ishlaydi).

◦ To‘rtinchi bosqich: tublashganlik (avvalgi leksik ma’no butunlay yo‘qolgan, sof yordamchi xususiyati yuzaga chiqqan).

Bu bosqichlardan o‘tish ko‘pincha davriy–tarixiy xususiyatga ega bo‘lib, ayrim yordamchi so‘zlar mustaqil leksikaga yaqin turadi, ba’zilar esa allaqachon sof yordamchi maqomiga o‘tgan. Ushbu kashfiyot avvalgi ilmiy izlanishlarda faqat chegaralangan shaklda tilga olingan bo‘lib, bizning tadqiqot natijasida kengaytirilgan tasnif bilan boyitildi.

8. Transpozitsiya

holatlari

Yordamchi so‘zlarda transpozitsiya – ya’ni, turkumlararo o‘tish, vazifalarning almashinuvi va ikkilamchi sintaktik rolni egallash ham ko‘p kuzatiladi. Masalan, “bilan” (ko‘makchi) ayrim kontekstlarda bog‘lovchi vazifasiga o‘tishi yoki “ham” yuklamasi ba’zan bog‘lovchi sifatida ishlashi mumkin. Ushbu jarayonlar nafaqat nutqdagi rang-baranglik, balki yordamchi so‘zlar tizimining doimiy harakatda ekanligini ham tasdiqlaydi. Avvallari bu jarayonlar “ko‘makchi-bog‘lovchi” yoki “yuklama-bog‘lovchi” kabi mavhum atamalar bilan ifodalangan bo‘lsa, endilikda transpozitsiya konsepsiyasi ularning dialektik tabiatini ko‘proq ochib beradi.

Muhokama

Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda aniqlandiki, o‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlarni tasniflashda yuzaga kelayotgan ziddiyatlar, turli davrlarda turli metodlar bilan tasnif qilinganligi tufayli birlashtirilmagan manba va darsliklar bor. Qator tadqiqotlar formal tahlil bilan cheklangan, ba’zilar esa tarixiy-nuqta nazardan yondashgan. Shu sababli, aynan bir so‘zning turkum sifatida belgilanishida har xil yondashuvlar paydo bo‘lgan. Bizning tadqiqotda olingan yangilik shundaki, yordamchi so‘zlarining “oralıq uchinchi” sifatidagi ikki tomonlama — leksika va grammatika oralig‘ida turishini inkor qilmaslik lozim. Substantsial yondashuv ularning semantik, sintaktik va pragmatik jihatlarini yaxlit holda o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi.

Masalan, “uchun” bilan “bilan” ko‘makchilari sintaktik rol nuqtai nazaridan o‘xshash bo‘lsa, ularning semantik xususiyatlari, jumladan, maqsad yoki vosita munosabatini ifodalashda butunlay boshqa-boshqa shaklga ega.

Ushbu yechilmagan muammolar, masalan, ayrim so‘zlarning gibrid maqomi, grammatikatsiya bosqichlarining noaniq chegaralari va turli transpozitsiya holatlari, til tizimining murakkab, uzluksiz taraqqiyot jarayonida yuzaga keladi. Yordamchi so‘zlar takomiliga hissa qo‘shadigan omillar — tarixiy, leksik, morfologik, sintaktik va, eng muhimi, pragmatik faktorlar bir butun holda ishlaydi. Shuning uchun ham ularning aniq, yakdil tasnifi ishlab chiqilmagan.

Bu sohada avvalgi ishlar ko‘proq yoki nafaqat formal, balki ba‘zan tekis semantik tahlil bilan cheklangan edi. Mazkur tadqiqotda diskursiv va pragmatik yondashuvlarni ham kiritish bilan yordamchi so‘zlarning real muloqotdagi roli teranroq ochildi. Xususan, yuklamalarning nutqiy ta’sirchanlikni oshirishdagi vazifasi aniq misollar bilan ko‘rsatildi, bog‘lovchilarning variantlilik esa o‘zining gibrid xususiyati bilan izohlandi. Yordamchi so‘zlarning semantik-sintaktik xususiyatlarini yanada kengroq korpusda tekshirish, shu jumladan, dialektlarda kuzatish, ularning stilistik funksiyalarini ham aniqlashtirishi mumkin. Zero, ko‘makchi va yuklama sifatida qaralgan ayrim birliklar shevada butunlay boshqa funksiyaga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, dasturiy (kompyuter) lingvistika metodlarini qo‘llash orqali avval va hozirgi paytdagi matnlarni avtomatik tarzda tahlil qilish, yig‘ilgan natijalarni statistik ko‘rsatkichlarga asoslanib umumlashtirish imkonini beradi.

Muhokamada aniqlangan muammolar:

– Terminologik nomuvofiqlik: “Ko‘makchi-bog‘lovchi” yoki “bog‘lovchi-yuklama” kabi atamalarning mavhumligi, aslida, tahlilga xalaqit beradi. Transpozitsiya konsepsiyasi bu masalani nisbatan aniqlashtirishi mumkin.

– Statistik xulosalar cheklanganligi: Korpus miqdori oshirilsa yoki soha bo‘yicha turli uslubiy janrlar qo‘shilsa, e’lon qilinayotgan natijalar chuqurroq tasdiqlanishi yoki inkor etilishi mumkin. Biz foydalanilgan korpusda ayrim birliklarning chastotasi past bo‘lgani sababli, ularning transpozitsiya hodisasi to‘liq namoyon bo‘lmasligi ehtimoli bor.

– Dialektologiya va sotsiolingvistika: Yordamchi so‘zlarni hududiy sheva va ijtimoiy qatlamlar bo‘yicha ham o‘rganish lozim. Shunda ularning tarqalish sohalari va semantik ortligi aniqroq belgilanadi.

– Pragmatik xususiyatlar: Biz keltirgan misollarda “uchun” va “bilan” kabi ko‘makchilar ayni paytda emotiv va ekspresiv tusga ega bo‘lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omil kelajakda nutqiy aktlar nazariyasi (Speech Acts Theory) bilan bog‘lab o‘rganishni talab qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, olingan natijalar yordamchi so‘zlarning o‘zbek tilida qanday murakkab sathlarni egallaganini tasdiqlabgina qolmay, ularning semantik, sintaktik va, xususan, pragmatik funksiyalari hali ham to‘liq o‘rganilmagan soha ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotda ilgari e’lon qilingan ilmiy ishlardan farqli ravishda, yordamchi so‘zlarning “oraliq

uchinchi” sifatidagi o‘rni, градыониya tamoyili asosida darajalanishi, grammatikatsiya bosqichlari va transpozitsiya jarayonlari bir butun metodologik yondashuvda tahlil qilindi.

Kelgusidagi reja: Yanada kengroq matnlar, dialektik materiallar va eksperimental usullardan foydalanish orqali yuqoridagi xulosalarni kengaytirish, shuningdek, pragmatik tahlilni yanada chuqurlashtirish istiqbollari mavjud. Birgina yuklamalar misolida ham keyingi bosqichda so‘zlarning nutqiy holatga mos “emotiv” va “stilistik” darajalarini sinchiklab tadqiq etish, shu bilan birga, so‘z turkumlari tizimidagi muammoli masalalarga aniqroq yechim topish mumkin.

Shu tariqa, tadqiqotimizning asosiy natijalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

1. Yordamchi so‘zlar — o‘zbek tilining leksik va grammatik sathlari o‘rtasidagi “oraliq uchinchi” bo‘lib, turli tarixiy, lingvistik va pragmatik omillar ta’sirida shakllanadi.

2. Mavjud tasnif (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama) real nutqiy jarayonda murakkab transpozitsiya hodisalari bilan boyitiladi, ayrim birliklar turkumlarda “gibrid” holatlarda ishtirok etadi.

3. Darajalanish (градуониya) tamoyili yordamchi so‘zlarning bosqichma-bosqich grammatikatsiyalanishi va semantik hamda sintaktik funktsiyalarining kengayishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

4. Pragmatik funktsiyalar — muallif yoki so‘zlovchining intonatsion, modallik, stilistik, hatto hissiy (emotiv) ma’nolarini ifodalashda yordamchi so‘zlar asosiy rol o‘ynashi mumkin. Bu aspekt avvalgi tadqiqotlarda yetarli darajada yoritilmagan.

5. Tadqiqotdagi yangi natijalar — grammatikatsiya bosqichlarining aniqroq tasnifi, transpozitsiya mexanizmining detallashuvi, градыониya orqali semantik–funktsional qirralarning yoyilishi — o‘zbek tilshunosligining bu sohasiga qo‘shilgan hissamiz sifatida namoyon bo‘ladi.

6. Cheklovlar — korpus hajmining cheklangani va barcha uslubiy janrlarning to‘liq qamrab olinmagani tadqiqotimiz xulosalarining to‘liq universalligi haqida gapirishga hali erta ekanligini ko‘rsatadi. Bu kelajakda yanada kengaytirilgan materiallar bilan ishlashni taqozo etadi.

Umumiy qilib aytganda, yordamchi so‘zlarni faqat formal yoki faqat semantik–sintaktik nuqtai nazardan o‘rganish yetarli emasligi, ularning barcha qirralarini (funktsional, diskursiv, pragmatik) yaxlit holda o‘rganish zarurati anglashildi. Bu esa o‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlar mavzusini yangi bosqichga olib chiqib, ta’lim jarayonida ham, ilmiy izlanishlarda ham kompleks yondashuvni joriy etish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Bakhronovich, P.A. (2020). Pragmatic approach to functional words analysis in uzbek language.

2. Félix-Brasdefer, J.C. (2015). The Language of Service Encounters: A Pragmatic-Discursive Approach.

3. Bakhronovich, P.A., & Imamkulovich, O.B. (2020). The Importance Of Functional Words Categories In Uzbek Language And Their Lingvo-Pragmatic Analysis. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*.

4. Kurbanova, M., Sayfullina, F., & Karimova, Z. (2021). “PRAGMATIC INTERPRETATION OF WORD-SENTENCES IN UZBEK LANGUAGE”.

5. Rahmatova, H. N. (2022). Expression of the meaning of enhancement in auxiliary words. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(8), 27–30. <https://doi.org/10.5958/2249-7315.2022.00371.9>

6. Davlatova, R. H. (2020). *Pragmatic analysis of the linguistic concept of person-referencing deixis and pronouns referring to it in the uzbek language*. 7(5), 350–354. <https://www.bibliomed.org/?mno=98129>

7. Mansurova, T. (2024). *O‘zbek va rus tillarida fe’l bog‘lovchilarni qo‘llash imkoniyatlari*. 4(55), 34–37. <https://doi.org/10.69691/zwc4rz02>